"TASDIQLAYMAN"

Farg'ona davlat texnika universiteti

1-prorektori _____ Sh.Dexkanov

25-iyul 2025-yil

"Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizom"ga asosan Farg'ona davlat texnika universitetining Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya yig'ilishi

BAYONI №01-2024/2025

25.07.2025-y **FDTU**

Komissiya raisi	Sh.Dexkanov - Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektor
Komissiya kotibi	B.Abduxalilov - Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i
A'zolar	I.Iskandarov - Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga mas'ul rektor yordamchisi, N.Usmonova - Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, A.Kamilov - "Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasi mudiri, M.Sobirov - Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi rahbari, X.Xomidov - universitet profilaktika inspektori, fakultet yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari – S.Nomonjonov, Z.Umirzakov, R.Madumarov, M.Dadaquziyev

KUN TARTIBI:

1. **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-maydagi 186-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining "Ijtimoiy faollik indeksi"ni baholash metodikasi"ga asosan ariza bilan murojaat qilgan talabgorlarning ijtimoiy faollik indeksi yuzasidan baholash natijalari to'g'risida.**
2. **Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya xulosasini Maxsus komissiyaga taqdim etish to'g'risida.**

(Sh.Dexkanov, B.Abduxalilov, S.Nomonjonov, N.Usmonova, R.Madumarov, M.Dadaquziyev, Sh.Dexkanov)

ESHITILDI:

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya raisi Sh.Dexkanov so'z olib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2025-yil 14-martdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 149-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risida Nizom hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-maydagi 186-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining "Ijtimoiy faollik indeksi"ni baholash metodikasi"ga asosan universitetda jarayonlar tizimli ravishda tashkil etilganligi ma'lum qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan komissiya kotibi B.Abduxalilov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi. Xususan, universitet tomonidan yaratilgan www.grant.fstu.uz nomli sayt orqali 2025-yilning 20-iyuliga qadar jami 1385 nafar talabalar tomonidan arizalar kelib tushgan. Shundan, Magistraturaga oid 143 nafar, Arxitektura va qurilish fakultetidan 122 nafar, Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalari fakultetidan 483 nafar, Energetika muhandisligi fakultetidan 119 nafar, Ishlab chiqarishda boshqaruv fakultetidan 238 nafar, Mexanika-mashinasozlik fakultetidan 96 nafar, Yengil sanoat va to'qimachilik fakultetidan 27 nafar, Kimyo-texnologiya fakultetidan 143 nafar, sirtqi ta'limda 9 nafar va masofaviy ta'limda 5 nafar talabalar ariza bergan. Ushbu talabgorlar uchun 2025-yil 25-iyuliga qadar 11 ta mezon bo'yicha hujjatlarini yuklash imkoniyati berildi. Komissiya a'zolari tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-maydagi 186-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining "Ijtimoiy faollik indeksi"ni baholash metodikasi"ga asosan talabgorlarning baholari tegishli tartibda hisoblab chiqildi.

Komissiya yig'ilishida a'zolar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib,

QAROR QILINADI:

1. Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya raisi Sh.Dexkanov va komissiya kotibi B.Abduxalilovning ma'lumotlari axborot uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-martdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 149-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risida Nizom hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 16-maydagi 186-sonli buyrug'i bilan

tasdiqlangan “Oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallari talabalarining “Ijtimoiy faollik indeksi”ni baholash metodikasi”ga asosan universitet Ijtimoiy faollikni aniqlash bo‘yicha komissiyasi tomonidan ijtimoiy faollik indeksi bo‘yicha baholangan 1371 nafar talabgorlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va Maxsus komissiyaga taqdim etilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-martdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 149-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risida Nizomga asosan sirtqi ta’limdagi 9 nafar va masofaviy ta’limdagi 5 nafar talabalarning arizalarini rad etish bo‘yicha Maxsus komissiyaga taklif kiritilsin.

Komissiya raisi: Sh.Dexkanov

Komissiya kotibi: B.Abduxalilov

A’zolar:

Ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga mas’ul rektor yordamchisi I.Iskandarov

Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Usmonova

“Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasi mudiri A.Kamilov

Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi rahbari M.Sobirov

universitet profilaktika inspektori X.Xomidov

fakultet yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari:

S.Nomonjonov

Z.Umirzakov

R.Madumarov

M.Dadaquziyev